



HARAKAT VA HOLAT MA'NOSINI IFODALOVCHI LEKSIK OKKAZIONAL BIRLIKLAR

Abdurahmonova Sofiya

NavDU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15037454>

ARTICLE INFO

Received: 27th February 2025

Accepted: 28th February 2025

Published: 17th March 2025

KEYWORDS

*Harakat, holat, okkazional
ma'nolar, yozuvchi uslubi va mahorati.*

ABSTRACT

Okkazional so'zlar tildagi ifoda vositalaridan biri bo'lib, ular favqulodda yaratiladigan, ijodkor nutqining individual mahsuli bo'lib qoladigan, tilning me'yoriy unsurlariga aylanmaydigan, doimo yangilik bo'yog'ini saqlaydigan nutqiy hodisadir

Okkazional so'zlar og'zaki nutqda hamda badiiy, publitsistik, ilmiy, umuman olganda, barcha sohada qo'llanishi mumkin. Okkazional so'zlar so'zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o'zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo'lgan o'z munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llanadi. Okkazionalizmlar tasvir obyektini tasvirlashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganda yaratiladi.

Okkazional birlik ijodkorning ijod mahsuli bo'lib, uning o'z mahoratini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Biz bu maqolamizda Abdulla Qodiriyning « Mehrobdan chayon» romanidagi harakat va holatni ifodalovchi okkazional birliklarni ko'rib chiqamiz. "Solih maxdum bu kun odatdan tashqari eshilib ketdi, masjididan chiqib to'g'ri qassobning oldig'a bordi, bir tangalik go'sht, sakkiz pullik piyoz olib havlisiga keldi." – Muallif gapdagi "eshilib ketmoq" birikmasi orqali "har kungidan saxovatli bo'ldi, saxiyliги tutdi, ibora bilan aytganda, hotamtoyliги tutdi," - degan ma'nolarni anglatmoqda.

Eshilmoq atamasi – insonga emas, narsa- buyimga nisbatan ishlatiladi. Masalan: Qahrabodek sap-sariq sabzi uning pichog'i ostida ipak singari eshilib, taralib chiqar edi. (A. Muxtor, Chinor) " Albatta, Solih maxdum og'irroq kasbni uxda qilolmas, imomatka bo'lsa soqoli chiqmag'anliqdan yarolmas edi." Gapda keltirilgan " uxda qilmoq" so'zi – "uddasidan chiqmoq, bajara olmoq" ma'nolarini ifodalamoqda. Uxta so'zi O'zbek tili izohli lug'atida ham mavjud emas. Adib o'z mahoratini ishga solgan holda asarni chiroyli jumlar bilan boyitgan. " Bu hol ularda aksar faqirliq avjig'a mingan kezlarda voqi' bo'ladir. Agar yamoqchi kekirarlik darajada tomoqni bopta qilsa, ishi o'ngidan kelib istiqboli birmuncha ta'minlangandek bo'lsa, darhol vaziyat ishonmasliq ravishida o'zgarib ketadi." Gapdagi " bopta qilmoq" fe'li orqali – "to'q qilsa" degan ma'noni ifodalaydi.

Bopta so'zi - Belgixususiyati talab darajasida; to'g'ri keladigan, munosib, mos ma'nosini anglatadi. Masalan: Oying bilan magazinga chiqinglar-da, yetmaganiga qo'shib, bitta bopta kostyum olinglar (M. Ismoilij, Bizning roman) Birinchi gapda- to'q qilmoq, ikkinchi gapda- mos ma'nolarini anglatib kelgan.

“Yaxshi kechinish uchun turmas, ammo ko‘paytirish uchun yashar edi.” Adib gapdagi “kechinish” so‘zi orqali – “hayot kechmoq” qo‘shma fe‘lini ifodalamoqda. Kechinish fe‘li hayot kechmoq qo‘shma fe‘li o‘rnida ishlatilgan. Adib qisqalikka, tejamkorlikka intilgan holda okkazonallikni hosil qilgan. “ - Ashunga qog‘anda chalg‘ibsan, Samad, - dedi Safar bo‘zchi, - xat bitishka kelganda qo‘yavur, kambag‘alga qayishqanini ko‘rsang, ha, bo‘ldi deysan.” O‘shbu gapdagi “qayishgan” so‘zi- “yordam bergan, yon bosgan” ma‘nolarini ifodalab kelmoqda.

Qayishmoq so‘zi - egiluvchan, egilsa ham sinmaydigan degan ma‘noni ifodalaydi, asosan metallarga va yog‘ochlarga nisbatan ishlatiladi. “- Vakolat-ku ,yo‘q... Axir, tokay ilmingizni xor qilib masjidga yotasiz... Axir, birovni uka, birovni aka deb siz ham tuzukroq ishka qatishing-da, taqdir. Ushbu gapda “qatishmoq” fe‘li muallif tomonidan qalamga olingan ,”qatishmoq” fe‘lining gapdagi ma‘nosi – “ishlang, egiling ,yaxshi munosabta buling” ma‘nolarini ifodalab kelgan. Qatishmoq so‘zining asosiga e‘tibor beradigan bo‘lsak - qat-(Ot)

1. Qavat-qavat yoki qatlam-qatlam narsalarning xar bir qavati, qatlami.

2. Taxlangan, buklangan narsalarning orasi. Qat + ish= qatish (fe‘l) “ Mulla Abdurahmon Anvar bilan yonma-yon o‘lturg‘uchi “do‘sti” Safar bo‘zchini mehmonxonaning dahliziga kirishidayoq ko‘rib qoldi va sariq tusi bo‘zarib ketkan holda ichkariga qadam uzdi. Gapdagi “qadam uzmoq” fe‘liga e‘tibor beradigan bo‘lsak , “ ichkariga qadam tashladi ,ichkariga kirdi” ma‘nosida .Uzmoq so‘zi – 1.palak, novda yoki tupidan ajratib olmoq, kesmoq.2.Kesib, qirqib, joyidan bo‘lak qilmoq. Uzmoq so‘zini ko‘chma ma‘noda – gapni uzmoq Non uzmoq kabi ...

Qaytib kelmasligi ifodalashda - Uning endi qadami uzuldi. Bu gapda adib o‘z mahoratini ko‘rsatgan holda okkazonal birlikni ifodalagan. “-Bu yigit bizning mirzalar orasida o‘bdan ko‘rinadi.” Gapdagi “o‘pdan ko‘rinmoq”- so‘ziga e‘tibor bersak- “ chaqqon, epchil, g‘ayrati, o‘z ishining ustasi ” degan ma‘nolarni anglatmoqda. “ Mulla Abdurahmon ham muhokamasiga ozg‘ina g‘araz aralashtirib, Safar bo‘zchining achchig‘ haqoratig‘a hadaf bo‘ldi.” Gapdagi “ hadaf bo‘lmoq” okkazonal birligiga e‘tibor beramiz. Bu gapda “hadaf bo‘moq – achchiqlandi, kek saqladi, nafrati qo‘zg‘adi” - ma‘nomlarini ifodalagan. Hadaf so‘ziga sinonim deya hasad so‘zini olsak bo‘ladi. So‘zlarni qo‘llashda adiblarni mahorati yuqori darajada turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2014–2025
2. Badiiy til muammolari. // “Inqilob va adabiyot” Toshkent. 1977
3. A.Qodiriy “ Mehrobdan chayon” Toshkent. 2019
4. Сиёев С. Сўз қадрини билмаган // “Ўзбек адабиёти ва санъати” газетаси 1997 Ийл 11 апрел №15